

Shamsiddinova Sh.O.,

O'zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar: Yuldasheva S.F.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda kitob o'qishning samarali usullari va kitob o'qishda irodani mustahkamlash haqida yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Maktab ta'lif tizimi, hikmatli so'zlar, badiiy kitoblar, til o'rghanish, kitob o'qishda duch kelinadigan muammolar.*

Har bir maktabda, litseyda, universitetda o'qiydigan bola albatta o'z sohasidagi kitoblarga qiziqishadi. Lekin hammasi ham kitob o'qishni odad qilmaydi. Kitob o'qib mag'zini chaqa olgan ya'nii ma'nosini tushuna olgan inson bir katta yo'lni bosib manzilga yetgan inson kabitdir. Bunday insonlar o'zlari uchun tajriba va yangi g'oyalar olishadi. Dunyoqarashi kengayadi.

Bugungi kunda texnologiya juda rivojlangan. Siz qiziqib topa olmagan kitobingizni ham elektron shaklda topib bemalol o'qishingiz mumkin. Lekin ko'p elektron kitoblarga bog'lanib qolish yaxshi emas.

Elektron kitoblar his tuyg'ulardan uzoqlashtirishi mumkin. Siz haqiqiy kitobdan olgan ma'lumotlaringizni, his-hayajonni elektron kitobdan 30 foizini olishingiz mumkin xolos. Kitob o'qiyotganimizda voqealar o'z o'zidan tasavvurimizda shakllanadi. Birorta badiiy asar o'qisangiz o'zingizni qahramon sifatida ishtirok etayotgandek his qilasiz. Asar voqealariga sho'ng'ib ketasiz. Asardagi qahramonlar siz uchun opa-singil, aka-ukadek bo'lib qolishadi. Xuddi asarning asosiy qismi sizga bog'liqdek tuyuladi. Tabiiyki bundan hammamiz har xil hissiyotni boshdan kechiramiz. His qilish, tez anglab olish qobiliyatimiz kuchayadi. Albatta qiziqib o'qiyotgan asarlarining orqali sodir boaldi.

Har bir kitob o'qigan inson boshqalardan har tomonlama ajralib turadi. Hatto oddiy bajarayotgan ishlaridan ozodalikni tartibni sezishimiz mumkin. Ba'zida kop kitob o'qigan odamlarda ham xulosasiz fikrlar paydo bo'ladi va buni boshqalarga tatbiq qilayotganda yomon holatda qolishi mumkin. Bunaqa vaziyat kuzatilmasligi uchun o'qigan kitoblarimizni ma'nosini tushunib xulosa chiqarib o'qishimiz kerak. Shundagina biz eng avvalo yaxshi inson, kitobxon, jamiyatda yetuk kadr bo'lib yetisha olamiz.

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai".

Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rghanishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Kitob bizga butun hayotimiz davomida ta'lif bera oladigan vosita hisoblanadi.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

*"Kim istasa sultanat, sahodir, anga shart,
Ham va'daga aylasa vafodur anga shart".*

Ushbu hikmatli so'zda Alisher "Agar biror narsani xohlasang va unga vafo qilib oxirigacha bajarsang yuksak marralarga erishasan" talqinida ifodalab bergen. Haqiqatdan ham biz biror narsani xohlab rejalahtirsakda oxirigacha borishga ba'zan sabrimiz chidamaydi. Masalan bir kitobni o'qishni rejalahtiramiz ammo ozgina o'qib undan uzoqlashamiz. Kitob o'qish ham kuchli iroda talab qiladi.

Biz bu vazifani bajarishimiz uchun o'zimiz yoqtirgan oddiy narsalarga bog'lab ado etsak bo'ladi. Masalan erta tongda turganingizda qanday mashg'ulot bajarishni yoki nima qilishni yoqtirasiz? Aynan qanday vazifa bajarish sizga zavq bag'ishladi? Siz reja qilgan kitobingizni ham ertalab uygonishingiz bilan qo'lingizga oling va ma'lum sahifa belgilab har kuni sevimli mashgulotingizni bajarishdan oldin osha sahifalarini tugatishni odad qiling. Masalan siz ertalab turib issiqliqna kofe ichishni yoqtirishingiz mumkin. Xuddi shu holatda har kuni belgilangan sahifalarini o'qib bo'lib o'sha yoqtirgan odatizga ya'ni qaynoqqina kofe ichishga shoshilishingiz mumkin. Va boshqa paytlarda ham siz o'zingiz sevgan mashg'ulot ingiz bilan kitob o'qishga harakat qiling. Bu irodangizmi ham mustahkam qilishda yordam beradi. Bu albatta kitob o'qishning foydalarini bila turib, ozgina dangasaligi tutadigan, iroda sizlik qilayotgan insonlar uchun juda foydalidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtaida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to'rtinchisi, ya'ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtaida kitobxonlikni keng targ'ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari bugungi kunda boshqa juda ko'p imkoniyatlar ham yaratilgan. Biz bundan shunchaki unumli foydalanishimiz kerak xolos.

Insonlar kitobni har xil holatda o'qishadi, kimdur qiziqib kimdur majburlikdan. Ayniqsa mактабда har bir o'quvchi barcha fanlarni o'zlashtirishga qiynalishadi.

Bu holatda ularga kitoblar zerikarlidek tuyuladi.

Yoshlar o'ziga yoqqan kitoblarni qiziqib o'qisagina o'zi xohlagan narsani kitobdan olib zavqlansagina yana kitobga talpishi mumkin. Chin dildan xohlab bajargan ishimizdan yuqori natija olishimiz mumkin. Aynan kitoblardan ham. Biz kitob o'qishdan avval biz uchun aynan qanday foya berishi va undagi tajribalarni hayotda qollay olishimizni o'ylab, keyin boshlashimiz kerak. Ana shu holatda siz birinchidan qiziqqan ma'lumotingizni o'qiysiz. ikkincidan o'sha kitobdan zavq olasiz. Vaqtingiz ham mazmunli o'tadi.

Imom al - buxoriy o'zining "Al adab al mufrat" kitobida "Ota farzandlariga yaxshilik qilishi haqida" gi bobida shunday deydi: Abdulloh ibn Umar (r.a.): "Allah

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

taolo qur'oni karimda yaxshi bandalarni abror, deb maqtadi, chunki ular otalariga yaxshilik qilganlaridek, bolalariga ham yaxshilik qilgan edilar.

Sening bo'yningda otangning haqi bo'lganidek, bolangning ham haqi bor". Ya'ni bundan anglashimiz mumkinki ota onamiz bizni kitobga qiziqishga yo'naltiradigan asosiy insonlardan hisoblanadi. Shunday ekan har bir ota ona bolalar maktabda o'qib boshlagan paytda to'gri tavsiya bera olishi ularni qiziqishlarini anglashi kerak. Ayni shu davrdan boshlab bolalarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish zarur. Bugungi kunda yoshlar til o'rganishga sho'ng'ib ketishgan. Ma'lum darajada lug'atlar yodlashadi, o'z bilim salohiyatidan kelib chiqib o'rganishadi. Ammo biz boshqa tilni o'rganishiniz uchun ham o'z tilimizni mukammal bilishimiz kerak, shunga yarasha fikrlay olishimiz keng dunyoqarashimiz bo'lishi kerak. Buning uchun albatta ko'p kitob o'qishimiz ilm olishimiz zarur. Va yaxshi kitobxon bo'la olsak, hayotimiz go'zal bo'ladi. Biz chiqarayotgan qarorlar doim tog'ri va chiroyli yo'lga boshlaydi. Va biz jamiyatga foydasi tegadigan yetuk kadr bo'lib yetishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. "Hikmatlar". G'afur G'ulom nashriyoti, 1968, 41-bet.
2. Imom al Buxoriy. "Al adab-al mufrod". 19-bet.
3. Lex.uz on-line sayti <https://lex.uz/ru/docs/-5160827>.